

**O'QUVCHILARDAGI NUTQ KAMCHILIKLARINI ERTA ANIQLASH VA  
HAMKORLIKDA BARTARAF ETISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7792062>

**Sobirova Nigora Qodirjon qizi**  
*Namangan davlat universiteti*  
*Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni*  
*o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *maqolada nutqdagi kamchiliklar, ota-onalar, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan tarbiyachi, o'qituvchi, mutaxassislarning hamkorlikda ish yuritishlari, o'quvchining nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishiga e'tibor berishlari va o'z vaqtida uning nutqida uchraydigan kamchiliklarning oldini olishlari borasida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *nutq kamchiligi, nutq tovushlari talaffuzi, oilaviy muhit, maxsus topshiriqlar, nutq logopedning ishi.*

**ВЫЯВЛЕНИЯ РАННЕГО НАРУШЕНИЯ ДЕФЕКТОВ РЕЧИ УЧЕНИКОВ И ИХ  
СОВМЕСТНОЕ РЕШЕНИЕ.**

**Собирова Нигора Кодиржан кизи**  
*Наманганский государственный университет*  
*преподаватель кафедры методики преподавания*  
*общественно-гуманитарных дисциплин в начальном образовании.*

**Аннотация:** *в статье рассматриваются дефекты речи, а также совместная работа - родителей, воспитателей, учителей и логопедов для устранения звуковых недостатков учащихся в речевой деятельности. Обращать внимание на правильное произношение учащимися звуков речи.*

**Ключевые слова:** *дефект речи, речевые недостатки, речевые звуковые произношения, семейная среда, работа логопеда.*

**EARLY DETECTION AND COOPERATIVE REMEDY OF STUDENT SPEECH  
DEFICIENCIES**

**Sobirova Nigora (Qodirjon qizi)**  
*Namangan state university*  
*teacher of the Department of social science teaching*  
*methodology in primary education.*

**Annotation:** *in article, speech defects, parents, educators, teachers, specialists working in educational institutions should work together, pay attention to the student's correct pronunciation of speech sounds, and prevent the defects in his speech in time, will be considered.*

**Key words:** *speech deficiency, pronunciation of speech sounds, family environment, special tasks, work of a lagopet.*

**Kirish.** O'sib borayotgan yosh avlodning zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo'lib yetishishida nutqning to'g'ri rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Chunki nutq bu kishilarning aloqa vositasidir. O'sish va rivojlanish jarayoniga tegishli barcha omillar bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Jismoniy rivojlanish va harakatlanish aqliy rivojlanish uchun yaxshi sharoitni ta'minlaydi. Bolaga muhabbat va e'tibor beriluvchi muhit unda xavfsizlik, shaxsiy ahamiyatlilik tuyg'usini shakllantiradi va yanada yuqori mustaqillik hamda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Nutqning rivojlanishi aqliy rivojlanishga yanada turtki beradi. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi borasida tadqiqotchi olimlar V.S.Raxmanova[1] va M.Y.Ayupova[2] asarlarida fikrlar berilgan. Defektolog olimlar R.Shomaxmudova, L.Mo'minova[3] bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish borasida keng tarzda ma'lumotlar berishgan. M.Sobirova ilmiy izlanishlarida[4] o'quvchi nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib borishi va bunda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish samara berishi haqida so'z boradi. Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirishga katta e'tibor berishga oid fikrlar Sh.Sariyev tomonidan ilgari suriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada nutqdagi kamchiliklar, ota-onalar, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan tarbiyachi, o'qituvchi, mutaxassislarining hamkorlikda ish yuritishlari, o'quvchining nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishiga e'tibor berishlari va o'z vaqtida uning nutqida uchraydigan kamchiliklarning oldini olish masalalari o'rganiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Tahlillar nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozimligini ko'rsatadi. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilishi va o'qishi uchun salbiy ta'sir etadi. Nutq kamchiliklari o'z-o'zidan mustaqil bartaraf etilmaydi. Bunday bolalardagi muammoni bartaraf etishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun nutqdagi kamchiliklarning paydo bo'lishi va rivojlanish qoidalarini bilib olish kerak.

Bolaning 7 yoshdan 17 yoshgacha davri nutqning rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda ro'y beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonunlarini egallay boshlaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq yuzaga kelib, asta-sekin yetakchi rol o'ynaydi. Bola endilikda "chunki", "agar", "qachonki" kabi bog'lovchilarni ishlata oladi. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda o'z ifodasini topayotganligini ko'rsatadi. Yana shuni aytib o'tish joizki, shu yoshdagi tengdosh bolalarda so'z boyligining oz yoki ko'p bo'lishi (7 yosh 3000-3500 ga yaqin so'z), asosan, shu bola tarbiyalanayotgan muhitga shuningdek bolaning so'zlar ma'nosini tushunish layoqati

umumlashtirilgan holda idrok eta olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Boladagi shaxsiy individuallik, betakrorlik, qadriyatlar tuyg'usini qo'llab quvvatlash zarur.

Ota-onalar, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan tarbiyachi, o'qituvchi, mutaxassislar bolaning tovushlarni to'g'ri talaffuz etishlariga e'tibor berishlari va o'z vaqtida ular nutqida uchraydigan kamchiliklarning oldini olishlari zarur.

Ota-ona bola hayotiga tegishli bo'lgan barcha soha yani uning alohida ehtiyojlari, hayotiy yo'li bo'yicha ekspert hisoblanadi. Shu munosabat bilan ular bola haqidagi pedagogik, psixologik va ijtimoiy yordamga tegishli barcha ma'lumotlarni mutaxassisga to'laqonli taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Ular bolani kuzatish kerakli ma'lumotlarni mutaxassisga yetkazishlari, bolaning ta'lim olish jarayonida faol ishtirok etishlari, mutaxassislarga kerakli ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy yordam berib, bolaning rivojlanishiga qaratilgan dasturlarni kuchaytirishlari maqsadga muvofiq.

Ota-onalar bolaning o'z-o'ziga bo'lgan ijobiy munosabatini qo'llab-quvvatlashi, uning qobiliyatlarini, rag'batlantirishi va boshqalardan ajralib turuvchi hislatini qadrlashi zarur. Oila va oilaviy muhit bolaning rivojlanishi uchun eng yaxshi joy. Faqat oilaviy muhitgina bola boshqa odamni rostmana sevish va tushunishga, unga hamdard bo'lishga, o'zini boshqa odam o'rniga qo'yib ko'rishga, boshqa odamlar bilan uzoq muddatli mustahkam o'zaro munosabatlarni o'rnatishga o'rgatish mumkin. Atrof-olam bilan kam muloqotda bo'lish oqibatida bola nutqida leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bola kommunikativ nutqqa ega bo'lgandagina kishilar bilan aloqa bog'lay oladi, lekin buni ota-ona (tarbiyachi) ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamidagina amalga oshiradi.

Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatishda qiyinchiliklar kuzatilib, ta'lim jarayonini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biz bolani o'rganar ekanmiz, unga o'rgatib ham boramiz. O'quv muassasalarida logopedning ota-onalar bilan hamkorligi butun pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, muammoni bartaraf etish bosqichlarini tizimli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunda mutaxassis har bir bolaning nutqiy va umumiy rivojlanishini atroflicha ta'riflaydi. Ota-onalarga bolalarining nutqiy rivojlanishlaridagi asosiy kamchiliklarni tushunarli qilib yoritib berish, ularning talaffuz me'yorlaridan orqada qolish darajasini va ushbu nuqsonni bartaraf etishda hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatib berish kerak. Tuzatuvchi ta'lim majmuasi bu o'quv dasturi talablarini bajarish bilan birga nutq nuqsonlarini tuzatish bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni qo'shib olib borishdir. Nutq kamchiliklariga ega bo'lgan o'quvchilarga maktabda oddiy kun tartibidan farq qiladigan maxsus kun tartibi ishlab chiqiladi. Mutaxassisning o'quvchi nutqini rivojlantirish sohasidagi vazifalari; atrofidagi narsalar haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish asosida uning nutq boyligini kengaytirish va faollashtirish; o'quvchida har xil muomala vaziyatlarida shakllangan ravon so'zlash malaka va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyatlarini o'stirish; mustaqil fikrlashga o'rgatish; so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlarini, nutqning grammatik jihatdan (tovush bo'g'inlarga rioya qilib) to'g'ri tuzilishini ta'minlash.

Shulardan kelib chiqib maktablarda nutq kamchiliklariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan quyidagicha mashg'ulotlar tashkil etiladi va o'tkaziladi:



1. Bolalarning yosh xususiyatlari va nutq nuqsoning turi, ona tilidan maktab dasturini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Logopedik mashg'ulotlarga dars mashg'ulotlaridan bo'sh va sinfdan tashqari vaqtda 5-6 soat ajratiladi. Maktab ma'muriyati va sinf o'qituvchilari bilan kelishgan holda logoped o'quvchilarni hatto dars mashg'uloti paytida ham o'z mashg'ulotiga jalb etishi mumkin. (Chunki logoped mashg'ulotlari mavzularini o'qituvchi ish rejasiga muvofiq ravishda shakllantiradi).

2. Mashg'ulot mazmunini qisqacha aks ettirilgan vazifa daftarlari asosida o'qituvchi va ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ish tashkil qilinadi, ular dars vaqtida, uy vazifalarini tayyorlash davomida, kundalik turmushda logopedik mashg'ulotlar jarayonida egallagan nutqiy malakalarini mustahkamlashlariga ko'maklashib boriladi. Dars vaqtida va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchidagi o'zgarishlarni qayd etish uchun nutqidagi o'zgarishlar yutuq va kamchiliklari haqida axborot berib boriladi.

3. Mustaqil faoliyat orqali og'zaki nutqni rivojlantirish. Bunda o'quvchiga maxsus topshiriqlar berib, zeriktirmagan holda qiziqishlarini hisobga olgan holda yoki o'yin faoliyati orqali maqsadga erishiladi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'yinlar, ayniqsa, xalq o'yinlari bola shaxsining rivojlanishida bir necha vazifalarni bajarib kelgan. Birinchidan, bolada to'g'ri talaffuzni shakllantirishga o'yin tarkibidagi ifodali she'rlarni yoddan aytib berish, turli ohangdor hikoyalar so'zlash, xotirani mustahkamlash orqali erishilgan. Ikkinchidan, hisoblash, tez aytish, topishmoqlarni tez yod olishga o'rgatilgan.

Xulosalar. Bola dunyoga kelgan ilk kundan undagi rivojlanish bosqichlarining namoyon bo'lishi va tashqi olamga munosabati, atrofdagilar bilan muloqotiga sezgir va kuzatuvchan bo'lishimiz kerak. O'quvchi maktab yoshida ichki kechinmalari, narsa va hodisalarga nisbatan fikrini nutq orqali ifodalab beradi. Ba'zi tovushlarni talaffuz eta olmaslik aksariyat hollarda ayrim yoshgacha tabiiy jarayon hisoblansa-da, ular o'z vaqtida bartaraf etilmasa, o'quvchining hayot faoliyatiga jiddiy ta'sir etadi. Ota-ona, pedagoglar bolaning kamol topishida, fiziologik va ruhiy shakllanish qonuniyatlarini kuzatuvchi va boshqaruvchi shaxslar hisoblanib, bu borada uni qo'llab-quvvatlashlari va rivojlantiruvchi muhitni yaratib berishlari lozim. Ota-ona, o'qituvchi, logoped hamkorligi bu boradagi harakatlar samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2004 y.
2. Ayupova M.Y. Logopediya. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2011 y.
3. Shomaxmudova R., Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. - Toshkent, 2007 y.
4. Sobirova M. Zamonaviy texnologiyalar asosida nutg o'stirish. Uslubiy qo'llanma. - Namangan. 2016 yil. 154 bet.
5. Sariyev Sh. Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirish. //Boshlang'ich ta'lim. - Toshkent, 2007. - № 4. - B.23.